

O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Nargiza Mustafoyeva Rustamovna,

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

13-son IDUMning Boshlang'ich fani o'qituvchisi

Mohigul Majitova Bahronovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

13-son IDUMning Boshlang'ich fani o'qituvchisi

Nozima Ashurova Allamjonovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

13-son IDUMning Boshlang'ich fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma savodxonlikni oshirishga doir bir qancha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Imlo, izohli lug'at, diktant, "Xatosini top", "To'g'risini top", orfografiya, "Eshitishimcha"

Imlo nafaqat insonning savodini, balki uning ilmiy salohiyatini ham ko'rsatib beruvchi omildir. Husnixat bilan xatosiz yozish insonning ma'naviy ko'rki, yuzidir. Afsuski, yozma nutqimizda hamma ham imlo qoidalariga rioya qilavermaydi. Ommaviy axborot vositalari, afishalardagi ayrim kamchiliklar yoshlarimiz savodiga sezilarli ta'sir qilyapti. Shuning uchun hozirgi davrda bizdan talab qilinadigan vazifa o'quvchilarning imloviy xatolarsiz, chiroyli husnixat bilan yozishga o'rgatish, kreativ fikrlash va nutqiy savodxonligini oshirishdir. Mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirishga e'tibor kuchaygan bir paytda bizning mas'uliyatimiz yana-da orta boradi.

O'quvchining yozma savodxonligini oshirishda diktantlarning ahamiyati katta. Diktantlarning qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar, xoh saylanma, xoh grammatik yoki lug'at diktant bo'lsin, uni yozishda o'quvchi orfografiya qoidalarini bilishi va bu haqida ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Diktantlardan foydalanish o'quvchida fikrlash qobiliyatini oshiradi, ham yozma, ham og'zaki nutqini rivojlantiradi.

O'quvchilar savodxonligini oshirish uchun har darsda o'quvchining yoshiga mos 9-10 ta so'zdan iborat lug'at diktant olinadi.

Masalan, baynalmilal, jangovar, junjikish, mutolaa, hasharot, bo'ysunish, jigarrang, inflyatsiya, berkitmoq, taqiqlamoq. O'quvchilar diktantni yozib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozadi. O'quvchilar doskadan ko'rib o'zlari tekshirib oladi. Uyga vazifa sifatida xato qilgan so'zlarini qaytadan yozib kelishadi. Zero, takror bilimning asosidir.

Fan to'garaklarida ham diktantlardan foydalanish samaralidir. "Xotirangni sina" metodida o'quvchilarning qo'lga 100-110 ta so'zdan iborat matn yozilgan varaqlar tarqatiladi. O'quvchilar matnni diqqat bilan o'qib chiqqach, yig'ib olinadi. So'ngra o'sha matn yozdiriladi. Bu metodning ahamiyati o'quvchilarning yozma savodxonligi bilan

birga,xotirasi ham sinaladi.Yana shu topshiriqqa qo'shimcha sifatida matnda keltirilgan tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohi muhokama qilinadi va o'qituvchi "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalangan holda so'zlar ma'nosini aytadi.Bu o'quvchining lug'at bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

O'quvchilarning imloda eng oqsaydigan jihati bu H va X harflari imlosidir.Talaffuzda o'xshash bo'lganligi bois yozuvda ushbu harflarni ajratish

o'quvchi uchun muammoga aylanyapti."Xatosini top" metodida o'quvchilarga X va H qatnashgan so'zlar beriladi.Mazkur so'zlardan xatosini topishadi.

Hil-hil	axyon-axyon
Xozirjavob	hamyon
Tahdid	xayo
Maxsulot	axloq
Holat	haloyiq
Xijolat	xolat

Topshiriqni bajarib bo'lgach o'quvchilar qo'liga O'zbek tilining imlo lug'ati beriladi.O'quvchining o'zi shu so'zlar imlosini topadi.Bunda ular lug'at bilan mustaqil ishlashni o'rganadi.Shuningdek,xato qilgan so'zlarini chiroyli husnixatda uyda takroran yozib kelish buyuriladi.Yoki "To'g'risini top" metodida o'quvchilar qo'liga tarqatma tarqatiladi.Unda so'zlarning to'g'ri va noto'g'ri yozilgan variantlari bo'ladi.O'quvchi to'g'ri yozilgan so'zning yoniga "+" belgisini qo'yadi.

vakuum	vakum
afg'on	avg'on
tashviqot	tashfiqot
ne'mat	nemat
harom-xarish	xarom-harish
yarimorol	yarim orol
novvot	navot
biroz	bir oz
xohlamoq	xoxlamoq
gram	gramm

Paronimlarni noto'g'ri qo'llash ham katta xatoni keltirib chiqaradi.Shuning uchun o'quvchiga paronimlar bilan bog'liq topshiriqlarni ko'proq berish kerak.

Nuqtalar o'rniga paronim so'zlardan mosini qo'ying.

1. Xona ... , biroq kitob o'qib bo'lmaydi. (*yoriq / yorug'*)
2. Benzin, kerosin kabi ... larning narxi tobora qimmatlashib bormoqda. (*yonilg'i / yoqilg'i*)
3. Kecha kechasi Olimni ... ketishibdi.(*tunab / to'nab*)
4. ... im, bir qoshiq qonimdan keching.(*Shoh / Shox*)
5. Avval piyozni ... , keyin to'grab, qozonga sol.(*art / arch*)
6. Men egizaklar ... i ostida tavallud topganman.(*burj / burch*)

7. Akam bu yerlardan ketishga ... qildi.(*azm / azim*)
8. Bunday ... - nayranglar endi o'tmaydi.(*xiyla / hiyla*)
9. ... ikki qo'ldan chiqadi. (*qars / qarz*)
10. Bu juda ham ... daryo.(*azm / azim*)

O'qituvchi bu topshiriqni bajartirishda tarqatmalardan yoki AKT vositalaridan foydalansa ham bo'ladi. Topshiriqni tahlil qilishda Paronimlar lug'atidan foydalanib, har bir so'zning izohini o'quvchiga aytish lozim. Kutubxonaga Paronimlar lug'ati bo'lmasa, elektron lug'atlardan foydalanamiz.

O'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda mumtoz adabiyotimizga murojaat qilamiz. Bunda mumtoz matn yoki g'azal o'qituvchi tomonidan o'qiladi. O'quvchilar diktant yozadilar. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar "Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at" dan ma'nosi topib izohlanadi. Quyida Bobur ruboiylaridan biri keltirildi.

Ey bodi sabo, ayla Xurosong'a guzar,
Mendin degil ul yori parishong'a xabar.
Necha safar o'z ko'nglung uchun qilg'aysen,
Emdi bizing uchun ayla bu yong'a safar.

Bodi sabo – tong shamoli, mayin shabada.

Guzar – o'tish, kechish.

"Eshitishimcha " usuli orqali o'quvchi ham imlo, ham so'zlar izohidan birvarakayiga foydalanadi. O'quvchilarga tarqatma tarqatiladi. Ular izoh yozilgan so'zlardan yashiringan so'zni topishlari kerak yoki teskarisini qo'llasa ham bo'ladi. So'z yoziladi, o'quvchi uning izohini topadi, izohlar kamida beshta so'z yoki tushunchadan iborat bo'lishi kerak. Bu topshiriqni bajarishda bizga "O'zbek tilining izohli lug'ati" kerak bo'ladi.

izoh	So'z	izoh	So'z
Eshitishimcha, hamma ham bo'lmaydi.		Eshitishimcha, u hammani savodli qilib chiqaradi	
Samimiylilik,ziyraklik	farosat	O'qish joyi	maktab
O'tkir aql		idora	
Kishidagi tez va to'g'ri fahmalay olish qobiliyati		yosh avlodni ma'lumotli qiladi	
Zakovat ,did		Ta'lim-tarbiya beradi	

Lug'atlar bilan ishlashning ahamiyati shundaki, o'quvchining so'z boyligi ko'payadi, nutqi ravon bo'ladi, o'zbek tilining qanchalik so'zga boyligining guvohi bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining ona tiliga bo'lgan muhabbatini oshiribgina qolmasdan g'urur, faxrlanish hissini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbek tilining imlo lug'ati.A.Hojiyev, T., 1995
- 2.O'zbek tilining izohli lug'ati.
- 3.Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. B.Hasanov